

**OILADA FARZAND TARBIYASIGA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**

(O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining  
2025-yil 25- avgustdagi 308-son buyrug'i (3-ilova)si asosida maktab  
amaliyotchi psixologlariga mo'ljallangan 2025-2026 o'quv yilining  
yanvar oyi rejasi va ilovalariga muvofiq)

*Yunusova Marg'uba Mamatqulovna*

*Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 30-maktabining  
Amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada oilada farzand tarbiyasiga psixologik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Oila muhitining bola shaxsiyati shakllanishidagi o'rni, ota-onaning tarbiyaviy uslublari, psixologik yondashuv turlari hamda yosh davrlariga mos tarbiya tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek, ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqotning psixologik jihatlari ochib berilib, farzandning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri asoslab berilgan. Maqola natijalari ota-onalar, pedagoglar va amaliyotchi psixologlar uchun metodik ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Oila tarbiyasi, psixologik yondashuv, farzand tarbiyasi, oila muhiti, ota-ona va bola munosabatlari, emotsional rivojlanish, tarbiya uslublari, shaxs kamoloti, psixologik qo'llab-quvvatlash.

**KIRISH**

Oila – shaxs kamolotining eng muhim ijtimoiy makoni hisoblanadi. Farzandning ruhiy, axloqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi, avvalo, oiladagi tarbiya muhiti, ota-onaning munosabati hamda psixologik yondashuviga bevosita bog'liq. Shuning uchun oilada tarbiya jarayoniga ilmiy-psixologik asoslangan yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1. Farzand tarbiyasida oilaning psixologik muhiti

Oiladagi ijobiy psixologik muhit – farzandning sog'lom shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shartdir. Mehr-muhabbat, ishonch, o'zaro hurmat hukm surgan oila muhitida voyaga yetgan bolalar o'ziga ishonchli, mustaqil va ijtimoiy faol bo'lib ulg'ayadi. Aksincha, doimiy nizolar, zo'ravonlik yoki befarqlik mavjud bo'lgan oilalarda bolalarda xavotir, agressiya, yopiq xarakter shakllanishi mumkin.

2. Psixologik yondashuv turlari

Farzand tarbiyasida qo'llaniladigan asosiy psixologik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Avtoritar yondashuv – ota-ona qat’iy nazorat va buyruq asosida tarbiya olib boradi. Bu usul intizomni shakllantirsa-da, bolaning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Demokratik yondashuv – bolaga hurmat bilan munosabatda bo’lish, fikrini tinglash va birgalikda qaror qabul qilishga asoslanadi. Eng samarali yondashuv sifatida e’tirof etiladi.

Liberal yondashuv – bolaga ortiqcha erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Bu holat mas’uliyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Psixologik qo’llab-quvvatlovchi yondashuv – bolani tushunish, emotsional qo’llab-quvvatlash, rag’batlantirishga asoslanadi.

### 3. Yosh davrlariga mos yondashuv

Farzand tarbiyasida yosh davrlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

Maktabgacha yoshda – mehr, xavfsizlik hissi va o’yin orqali o’rganish muhim;

Boshlang’ich maktab davrida – rag’bat, maqtoov va ijobiy baholash ustuvor;

O’smirlik davrida – suhbat, ishonch va shaxsiy hududga hurmat muhim omil hisoblanadi.

### 4. Ota-ona va farzand o’rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati

To’g’ri tashkil etilgan muloqot bolaning emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Ota-onaning bolani tinglashi, his-tuyg’ularini inkor etmasligi, muammolarini birgalikda hal etishi farzandda ochiqlik va ishonchni shakllantiradi.

Oilada farzand tarbiyasiga psixologik yondashuvlar ilmiy asosda tashkil etilsa, sog’lom, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o’z o’rnini topa oladigan shaxs tarbiyalanadi. Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, tarbiyaga ongli yondashish farzand kelajagini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Inson hayotining dastlabki bosqichlari ayniqsa bolalik va o’smirlik davrlari shaxsiyat shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davrda bola atrof-muhitdan, ayniqsa oiladan olgan tajriba, munosabat va qadriyatlar uning keyingi ijtimoiy hayotida muhim iz qoldiradi. Farzand tarbiyasi esa, aynan shu jarayonning asosiy negizidir. Tarbiya bola shaxsining ijtimoiylashuvi, axloqiy-ruhiy rivojlanishi va intellektual shakllanishini ta’minlovchi uzluksiz pedagogik-psixologik faoliyatdir.

Bu borada oila birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqadi. Oila farzand uchun nafaqat parvarish manbai, balki axloqiy, psixologik va intellektual rivojlanish muhiti sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois, oilaviy muhitning sifati, u yerda hukm suruvchi ruhiy iqlim, ota-ona shaxsiyati va tarbiyaviy yondashuvlar bolaning ongida va hayotga munosabatida bevosita aks etadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda oilaviy muhit bu oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, hissiy qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy qadriyatlar, muloqot uslublari, intellektual sharoit va hayotiy tajribalarning majmui sifatida talqin qilinadi. Bolaning psixologik holati, ijtimoiy moslashuv darajasi, mustaqil fikrlash salohiyati, empatiya va axloqiy qarashlari, ko'pincha, oiladagi iqlim va tarbiyaviy uslub bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Psixolog U. Bronfenbrenner tomonidan ilgari surilgan ekologik rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola shaxsining shakllanishiga eng yaqin va doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bu oila hisoblanadi. Bu nazariyada oila "mikrosistema" darajasida eng asosiy rivojlanish muhiti deb qaraladi Otaonaning farzand bilan o'rnatgan muloqoti, berayotgan namunasi, nazorat va erkinlik o'rtasidagi muvozanat, bolaga bo'lgan ishonch darajasi bularning barchasi bolaning ichki dunyosini shakllantiruvchi kuchli omillardir.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda turmush tarzi, iqtisodiy muammolar, ijtimoiy bosimlar, migratsiya, ajralish holatlari va boshqa omillar oilaviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, farzand tarbiyasining sifatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu sababli, oilaviy muhitning psixopedagogik rolini chuqur tahlil qilish va u orqali farzand kamolotiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mazkur maqola farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik va pedagogik jihatlarini tahlil qilish, ijobiy va salbiy oilaviy iqlimning shaxs rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda o'rganish, hamda psixolog va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Oilaviy muhit bu oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, hissiy qo'llab-quvvatlash, muloqot sifati, axloqiy qadriyatlar va intellektual muhitning umumiy majmuasi bo'lib, bola shaxsining har tomonlama shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omildir. Psixologik yondashuvga ko'ra, oilaviy muhit bolaning xavfsizlik, sevgi, erkin ifoda, qabul qilinish va ishonch ehtiyojlarini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy makon sifatida talqin qilinadi. A. Maslou o'zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida sevgi va tegishlilik ehtiyoji aynan oilada qondirilishini urg'ulaydi

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, oilaviy muhit birlamchi tarbiya instituti bo'lib, bolaga bevosita (so'zli ta'lim, ko'rsatma, nasihat) va bilvosita (ota-onaning shaxsiy namunasi, odatlar, oilaviy iqlim) ta'sir ko'rsatadi. Pedagog olimi T.A. Markova ta'kidlaganidek, oilaviy muhit sub'ekt-sub'ektili munosabatlarga asoslangan bo'lishi, ya'ni bolaning shaxsiy ehtiyojlari va hissiy holatlari inobatga olingan holda tashkil etilishi kerak

Oilaviy muhitni chuqurroq tahlil qilishda oiladagi shaxslararo munosabatlar strukturasi muhim ahamiyatga ega. Bu strukturaviy tizim ota-ona va bola o'rtasidagi yaqinlik, ishonch, tarbiya uslubi; er-xotin o'rtasidagi hurmat va

nizolar; aka-uka, opa-singil munosabatlaridagi raqobat va hamkorlik; oiladagi boshqaruv va rollar taqsimoti kabi omillar orqali belgilanadi. Psixolog

Farzand shaxsining shakllanish jarayonida psixologik va pedagogik omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular oilaviy muhitda birgalikda namoyon bo'ladi. Oila bu jarayonning boshlang'ich nuqtasidir. Bola o'zining kimligini, his-tuyg'ularini va xulq-atvorini aynan oilada shakllantiradi. Ota-onaning tutumi, muomala uslubi, mehr darajasi va tarbiyaviy yondashuvi bularning barchasi psixopedagogik omillar sifatida bola shaxsining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, ota-ona bola uchun birinchi o'qituvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va axloqiy namunadir. Ularning bolaga nisbatan munosabati, nazorati, ishonchi va qo'llabquvvatlovi farzandning hayotiy yo'nalishini belgilab beradi. Pedagog T.A. Markova taklif etgan "sub'ektki yondashuv" modeliga ko'ra, ota-ona bolaga mustaqil shaxs sifatida yondashishi, uning ehtiyojlari va shaxsiy fikrini inobatga olishi sog'lom pedagogik muhit shakllanishiga olib keladi. Bunday yondashuv farzandda o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va ijobiy axloqiy fazilatlarning shakllanishini rag'batlantiradi. Farzand shaxsining barqaror rivojida oiladagi muloqot sifati va hissiy muhit ham muhim o'rin tutadi. Mehr-muhabbat asosidagi muloqot farzandda o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi, stressga chidamlilikni oshiradi hamda ijtimoiy aloqalarga ochiqlikni ta'minlaydi. Bunday muhitda mehr va intizom uyg'unlashgan bo'lib, qoidalar oldindan kelishilgan va izchil qo'llanadi. Bu esa bolaga hayotda tartib, xavfsizlik va ijtimoiy ishonchni singdiradi.

Shuningdek, oilaviy tarbiyada muhim omillardan yana biri bu konfliktlarning mavjudligi va ularni hal etish usulidir. Oilada ro'y beradigan ziddiyatli vaziyatlar bolaning ruhiy holati va shaxsiy rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Agarda bu nizolar e'tiborsizlik, zo'ravonlik yoki bosim bilan yakunlansa, farzand o'zini aybdor his qiladi, ishonchni yo'qotadi, ichki xavotir va ijtimoiy chekinishga moyil bo'ladi. Aksincha, ziddiyatlar hurmat, tinglash va murosaga asoslangan konstruktiv yo'l bilan hal etilsa, ular bolaga hayotiy muammolarni mustaqil hal qilish, murosqa qilish va mas'uliyat his qilish kabi fazilatlarni o'rgatadi. Psixologik yondashuvda Gordon modeli asosida qurilgan ijobiy konflikt hal etish usuli aynan shunday tarbiyaviy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Farzand shaxsini sog'lom shakllantirish uchun ota-onalar pedagogik madaniyatli, emotsional jihatdan iliq, ochiq muloqotga tayyor, tartibli va bir vaqtning o'zida mehrli munosabatga ega bo'lishlari zarur. Oila bu nafaqat farzandni boqish va tarbiyalash maskani, balki uni hayotga tayyorlovchi psixopedagogik maktabdir.

Zamonaviy davrda globalizatsiya, axborot oqimi va ijtimoiy o'zgarishlar

fonida farzand tarbiyasi va oilaviy muhitga nisbatan yondashuvlar keskin o'zgarib bormoqda. An'anaviy model va qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar o'z o'rnini shaxsga yo'naltirilgan, psixologik barqarorlik va individual ehtiyojlarni inobatga oluvchi zamonaviy tarbiya konsepsiyalariga bo'shatmoqda. Bugungi kunda farzandni nafaqat intizomli, balki emotsional va ijtimoiy jihatdan sog'lom, mustaqil fikrlovchi, o'zini anglaydigan shaxs sifatida voyaga yetkazishga qaratilgan psixopedagogik modellar ustuvorlik kasb etmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda, pedagog K.Rodjers ilgari surgan "shartsiz qabul" tamoyiliga ko'ra, bolani doimiy baholashdan ko'ra, uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuvda ota-onaning asosiy vazifasi bolani emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, unga ishonish va o'z fikrini erkin bildirish imkonini yaratishdir. U. Bronfenbrennerning ekologik rivojlanish modeli esa oila va uning atrofidagi ijtimoiy muhitni bolaning rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida belgilaydi. Uning fikricha, bola nafaqat oila doirasida, balki maktab, do'stlar, media va jamiyat bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Bu o'zaro ta'sirlar "mikrosistema"dan "makrosistema" gacha bo'lgan darajalarda bola psixologiyasini boyitadi.

Shuningdek, maktablarda "ota-onalar maktabi", psixologik maslahatlar, seminar-treninglar yo'lga qo'yilmoqda. Bu holat oilaviy tarbiyada integrativ model ya'ni milliy qadriyatlar (kamolot, hayo, sabr) va zamonaviy yondashuvlar (erkin fikrlash, muloqot, o'zini anglash) uyg'unlashuvi orqali yangi yondashuvni shakllantirmoqda Bugungi tarbiya modeli nafaqat ota-onalarning hissiy yetukligi va axloqiy namunachiligi, balki jamiyatning institutsional yordami bilan ham shakllanishi kerak. Global va lokal tajribalarning uyg'unligi barqaror, emotsional sog'lom va ijtimoiy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### XULOSA

Oila bu nafaqat bola tug'iladigan muhit, balki u tarbiya, ijtimoiylashuv va shaxs sifatida kamol topishning eng birlamchi, eng chuqur va eng barqaror maskanidir. Bola shaxsining psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishi, ko'p jihatdan, aynan oiladagi tarbiyaviy muhitga bog'liq. Ushbu maqolada olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhitning sifati ya'ni, undagi hissiy iqlim, muloqot darajasi, axloqiy qadriyatlar tizimi va pedagogik yondashuvlar bolaning ichki dunyosi, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy munosabatlaridagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan qaralganda, mehrga asoslangan iliq oilaviy muhit bolada o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik, psixologik barqarorlik va ijobiy hayotiy motivatsiyani shakllantiradi. Aksincha, sovuq va ziddiyatli muhitda ulg'aygan farzandlar ko'pincha o'zini qadrsiz, yolg'iz yoki ijtimoiy moslashuvdan yiroq his etadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa, ota-onaning shaxsiy namunasi, muloqot

madaniyati, qoidabozlik va intizom o'rtasidagi muvozanat bolaning axloqiy yetuklikka erishishida asosiy omillardandir. Tadqiqotda zamonaviy psixopedagogik yondashuvlar (shaxsga yo'naltirilgan, ekologik va emotsional tarbiya modellarining) farzand tarbiyasiga tatbiqu tahlil qilindi. Shuningdek, AQSh, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlaridagi ilg'or tajribalar va O'zbekistonning milliy urf-odatlar bilan uyg'un psixopedagogik modellari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rsatildi. Sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishda ota-onalarning pedagogik bilim va ko'nikmalari, hissiy madaniyati, tarbiya jarayonida mas'uliyatni anglab harakat qilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Farzand shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiya bu faqat nazorat emas, balki sevgi, muloqot, ishonch va intellektual rag'batlantirish asosida qurilgan ongli jarayon bo'lishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press, 1979.
2. Crone E.A., and Fuligni, A.J. "Self and Others in Adolescence." Annual Review of Psychology, vol. 71, 2020.
3. Eide K. "Parenting and the Welfare State in Scandinavia." Childhood Studies Review, vol. 5, 2021.
4. Gordon T. Parent Effectiveness Training: The Tested Program for Raising Responsible Children. New York: Three Rivers Press, 2000.
5. Holloway Susan D. Parenting and Child Development in Japan and the United States. Cambridge University Press, 2000.
6. Ismoilov A. "Oila va jamiyat: zamonaviy psixologik yondashuvlar." O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, no. 4, 2023.
7. Mamatova M. O'zbek oilasida tarbiya an'analari. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Markova T.A. Sub'ekt-sub'ektli pedagogika: zamonaviy tarbiya modeli. Moskva: Pedagogika, 2020.
9. Maslow A.H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954.
10. Ziyo.net